

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI MOLIYAVIY RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA XORIJIY MOLIYALASHTIRISH MODELLARINING TAQQOSLAMA INSTITUTSIONAL TAHLILI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

i.f.f.d. (PhD), Biznesni boshqarish kafedrası, Ma'mun universiteti, Urganch, O'zbekiston.

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6293-1498> E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Maqolada kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha xorijiy moliyalashtirish modellarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi hamda xalqaro moliya institutlari faoliyati asosida integratsiyalashgan mualliflik modeli ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, moliyaviy raqobatbardoshlik, moliyalashtirish modeli, kredit kafilligi, taraqqiyot banklari, venchur kapital, raqamli moliya, FinTech, xalqaro moliya institutlari, institutsional rivojlanish, investitsion salohiyat, qiyosiy tahlil.*

KIRISH

Xorij amaliyotida kichik biznes subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlash samarali moliyalashtirish modellarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi kredit kafilligi, kichik biznesni rivojlantirish banklari, venchur kapital, raqamli moliya hamda xalqaro moliya institutlari ishtirokiga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarining tadbirkorlik sohasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlamoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy moliyalashtirish modellarini qiyosiy tahlil qilish va ularning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. Mazkur tadqiqotimizning maqsadi xorijiy moliyalashtirish modellarining o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy baholash hamda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlashning integratsiyalashgan mualliflik modelini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish va ularning moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari moliyaviy va amaliy iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammo evolyutsion tarzda rivojlanib, dastlab korxonalarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik davlat siyosati, moliyaviy institutlar, innovatsion investitsiyalar va raqamli moliyalashtirish mexanizmlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvga aylangan. Klassik moliyalashtirish nazariyalarida J.Shumpeter innovatsion rivojlanishda moliya tizimining strategik rolini asoslab bergan bo'lsa, Douglass Caplan. Nort institutsional muhitning iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan izohlab bergan. Keyinchalik Maykl. Porter raqobat ustunligi nazariyasida moliyaviy resurslar, innovatsiyalar va institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni raqobatbardoshlikning muhim determinantlaridan biri sifatida ko'rsatgan. Mazkur nazariy yondashuvlar bugungi kunda kichik biznesni moliyalashtirish modellarini ishlab chiqishning metodologik asosini tashkil etmoqda.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar moliyalashtirish masalasiga yanada kompleks yondashishni taklif etadi. IHTTning “Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard” hisobotlarida kichik biznesni moliyalashtirish tizimi bank kreditlari bilan cheklanmasligi, balki kredit kafilligi, venchur kapital, kraudfanding va boshqa muqobil moliyalashtirish instrumentlarini uygʻun rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan “Business Ready” konsepsiyasi esa biznes muhitining sifati, tartibga solish samaradorligi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yagona institutsional tizim sifatida baholaydi. XMK tadqiqotlarida esa moliyaviy inklyuziya, xususiyl sektorini rivojlantirish va kichik biznesni banklar orqali moliyalashtirishning institutsional mexanizmlari alohida oʻrin egallaydi.

Soʻnggi yillarda ilmiy adabiyotlarda raqamli moliyalashtirish va FinTech texnologiyalarining kichik biznes faoliyatiga taʼsiri tobora koʻproq oʻrganilmoqda. Ayniqsa, Xitoyning raqamli inklyuziv moliya modeli, AQSHning kredit kafilligi tizimi, Germaniyaning taraqqiyot banklari faoliyati, Janubiy Koreyaning innovatsion moliyalashtirish siyosati hamda Turkiya va Qozogʻistonning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesni moliyalashtirishning turli institutsional modellarini namoyon etadi. Tadqiqotlar ushbu modellar iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliya bozorlari infratuzilmasi va davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlariga mos ravishda shakllanishini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda xorijiy moliyalashtirish modellarini yagona qiyosiy metodologiya asosida baholash, ularning moliyaviy raqobatbardoshlik determinantlariga taʼsirini kompleks tahlil qilish hamda kredit kafilligi, taraqqiyot banklari, venchur kapital, raqamli moliya va xalqaro moliya institutlari faoliyatini integratsiyalashgan model doirasida oʻrganish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, ushbu tajribalarni Oʻzbekistonning institutsional sharoitiga moslashtirish va ularning ekonometrik baholash imkoniyatlarini ishlab chiqishga aloqador tadqiqotlar soni cheklangan.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan boʻlib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning moliyalashtirish modellarini qiyosiy institutsional tahlil qilish, xalqaro moliya institutlarining faoliyat mexanizmlarini tizimlashtirish hamda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini taʼminlashning muhim xususiyatlarini tavsif etishi bilan mavjud ilmiy adabiyotlardan farqlanadi.

Tahlil va natijalar. Jahon iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari iqtisodiy oʻsish, bandlikni taʼminlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq kichik biznesning barqaror rivojlanishi koʻp jihatdan moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Amaliy misollar shuni koʻrsatadiki, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kreditlash shartlarining murakkabligi va investitsion tavakkalchiliklarning yuqoriligi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini cheklovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu bois rivojlangan davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirishning maxsus institutlari va moliyaviy instrumentlari shakllantirilgan boʻlib, ular tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning institutsional mexanizmlariga aylangan.

Soʻnggi yillarda ilmiy adabiyotlarda moliyalashtirish modeli tushunchasi faqat kreditlash tizimi sifatida emas, balki davlat, moliya institutlari, xususiyl investorlar va biznes subyektlari

o‘rtasidagi institutsional munosabatlarni ifodalovchi kompleks mexanizm sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur yondashuvga ko‘ra, moliyaviy raqobatbardoshlik korxonaning ichki moliyaviy resurslari bilan bir qatorda tashqi moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi, moliyaviy vositalarning moslashuvchanligi hamda davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoitlarga ham bevosita bog‘liqdir. Aynan, shuning uchun IHTT, Jahon Banki va XMK tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish siyosati alohida iqtisodiy yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilib, kredit kafilligi, subsidiyalar, venchur kapital, factoring xizmatlari, kraudfanding va raqamli moliyalashtirish instrumentlaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirish bo‘yicha muvaffaqiyatli modellar umumiy maqsadga ega bo‘lsa-da, ularning institutsional tuzilishi va qo‘llaniladigan vositalari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga qarab farqlanadi. Shu jihatdan AQSH, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otishi ham ahamiyatli bo‘ladi.

1-jadval. Xorijiy davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirish institutlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash modellarining qiyosiy tavsifi

Davlat	Asosiy institut	Institut tavsifi	Tas hkil etilgan yil	Faol iyat ko‘lam i	Moliyalas htirish instrumentla ri	Kapi talga kirish	Innovats iyalar	Eks port
AQSH	Small Business Administra tion (SBA)	Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi federal agentlik	1953	34 mln+ KOB	Kredit kafilligi, grantlar, venchur kapital	+++	+++	++
Germa niya	KfW Developme nt Bank	Davlat taraqqiyot banki	1948	€100 mlrd+ yillik biznes dasturl ari	Imtiyozli kreditlar, eksport moliyasi	+++	++	++ +
Yapon iya	Credit Guarantee Corporatio ns (CGC)	Kredit kafilligi korporatsiy alari	1937	3 mln+ korxon a	Kredit kafilligi, sug‘urta	+++	+	++
Janubi y Koreya	Korea SMEs and Startups Agency (KOSME)	Startup va KOBni rivojlantiris h agentligi	1979	600 ming+ korxon a	Kreditlar, grantlar, VC	++	+++	++
Xitoy	Digital Inclusive Finance Platform	Raqamli moliyalasht irish ekotizimi	2013	Trln yuan kredit portfeli	FinTech, digital lending	++	++	++ +

Turkiya	KOSGE	KOBni rivojlantirish agentligi	1990	1 mln+ korxonalar	Grant, subsidiya, kredit	++	++	++
Qozog'iston	Damu Entrepreneurship Fund	Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi	1997	200 ming+ loyiha	Kredit subsidiyasi, kafillik	++	+	+

Izoh: +++ – yuqori ta'sir; ++ – o'rta ta'sir; + – bilvosita ta'sir.

Manba: SBA, KfW, KOSME, KOSGEB, Damu va Jahon Banki hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvalda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha shakllangan institutsional modellarni qiyosiy tahlil qilingan. Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirishning samaradorligi faqat ajratilayotgan moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki ushbu resurslarni taqsimlovchi institutlarning institutsional salohiyati, qo'llanilayotgan moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi va davlatning tartibga soluvchi roli bilan ham belgilanadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, AQSH, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maxsus davlat institutlari orqali amalga oshiriladi. Xususan, AQSHning "Small Business Administration" (SBA) federal tizimi kredit kafilligi, grantlar va ventur kapitalni uyg'unlashtirgan holda millionlab kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishga xizmat qilmoqda. Germaniyada "KfW Development Bank" uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlari orqali nafaqat investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi, balki eksport faoliyatini rag'batlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Yaponiyada "Credit Guarantee Corporations" (CGC) kredit tavakkalchiligini kamaytirish orqali banklar va tadbirkorlar o'rtasidagi institutsional ishonchni mustahkamlaydi, Janubiy Koreyada esa KOSME innovatsion startaplar va yuqori texnologik korxonalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlarni keng qo'llaydi.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, Xitoyda raqamli moliyalashtirish platformalari va FinTech texnologiyalarining jadal rivojlanishi kreditlash jarayonlarini tezlashtirib, moliyaviy inklyuziyani kengaytirmoqda. Turkiyaning KOSGEB agentligi grantlar, subsidiyalar va konsalting xizmatlarini yagona tizim asosida muvofiqlashtirsa, Qozog'istonning Damu jamg'armasi kredit subsidiyalari va davlat kafilligi orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali modelini shakllantirgan.

Jadvaldagi moliyalashtirish hajmi va faoliyat ko'lami bo'yicha keltirilgan ko'rsatkichlar ushbu institutlarning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, AQSH va Germaniyada milliardlab dollar va yevrolik moliyalashtirish dasturlari, Xitoyda trillion yuan hajmidagi raqamli kreditlar hamda Turkiya va Qozog'istonda yuz minglab tadbirkorlarni qamrab oluvchi dasturlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning tizimli xarakter kasb etganini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, ushbu tajribalarni qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston uchun kredit kafilligi, taraqqiyot banklari, raqamli moliyalashtirish va innovatsion investitsiyalarni o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Bu esa kichik biznes

subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini oshirishning institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

2-jadval. Xorijiy davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Davlat	KOBning YaIMdagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	Bank kreditlari ulushi (%)	Venchur kapital investitsiyalari (mlrd AQSH dollari)	FinTech rivojlanish darajasi
AQSH	44	46	43	170+	Juda yuqori
Germaniya	52	55	58	15+	Yuqori
Yaponiya	53	69	63	8+	Yuqori
Janubiy Koreya	48	81	61	12+	Juda yuqori
Xitoy	60	79	55	65+	Juda yuqori
Turkiya	50	73	42	2+	O'rta
Qozog'iston	36	39	29	0.3	Rivojlanmoqda

Manba: Jahon Banki, XMK, OTB, IHTT "Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard"ning 2024–2025 yillar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keyingi jadvalda xorijiy davlatlarda kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, bunda kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va moliyalashtirish tizimining rivojlanganlik darajasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Xususan, YaIM va bandlikdagi yuqori ulushga ega davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari nisbatan yaxshi rivojlangan. Jadvalga ko'ra, Xitoy, Yaponiya va Germaniya kichik biznesning YaIMdagi ulushi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Ayniqsa, Xitoyda mazkur ko'rsatkichning 60 foizga yetishi raqamli moliyalashtirish platformalari va FinTech texnologiyalarining keng joriy etilgani bilan izohlanadi. Janubiy Koreya va Turkiyada esa kichik biznesning bandlikdagi ulushi mos ravishda 81 va 73 foizni tashkil etib, ushbu sektorning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yuqoriligini tasdiqlaydi. Germaniya va Yaponiyada bank kreditlarining yuqori ulushi uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish tizimlarining samarali ishlayotganini ko'rsatadi. Venchur kapital investitsiyalari hajmi bo'yicha AQSH mutlaq ustunlikka ega bo'lib, innovatsion tadbirkorlikni moliyalashtirishning yetakchi modelini namoyish etadi. Xitoy va Janubiy Koreyada ham venchur kapital bozori faol rivojlanayotgani innovatsion korxonalar sonining ortishiga xizmat qilmoqda. Aksincha, Qozog'istonda mazkur ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi muqobil moliyalashtirish instrumentlari hali rivojlanish bosqichida ekanini anglatadi. Umuman olganda, mazkur tahliliy jadval kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, bank kreditlari qamrovi, venchur kapital bozori va FinTech infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatmoqda. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston uchun xorijiy tajribaning eng muhim tomoni kreditlashning an'anaviy shakllarini venchur kapital, raqamli moliyalashtirish va innovatsion investitsiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali kichik biznes subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

3-jadval. Xorijiy moliyalashtirish modellarining kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligi determinantlariga ta'sirini qiyosiy baholash

Moliyalashtirish modeli	Kapitalga kirish	Moliyaviy barqarorlik	Innovatsion salohiyat	Ekspost imkoniyati	Risklarni kamaytirish	Raqobat ustunligi
-------------------------	------------------	-----------------------	-----------------------	--------------------	-----------------------	-------------------

SBA (AQSH)	+++	++	+++	++	+++	+++
KfW (Germaniya)	+++	+++	++	+++	++	+++
CGC (Yaponiya)	+++	+++	+	++	+++	++
KOSME (Janubiy Koreya)	++	++	+++	++	++	+++
Digital Finance (Xitoy)	++	++	++	+++	++	+++
KOSGEB (Turkiya)	++	++	++	++	++	++
Damu (Qozog'iston)	++	++	+	+	+++	++

Izoh: +++ – yuqori ta'sir; ++ – o'rta ta'sir; + – bilvosita ta'sir.

Manba: IHTT, Jahon Banki, XMK hamda mahalliy rivojlanish institutlari hisobotlari asosida muallif tomonidan ekspert baholash usuli yordamida tuzilgan.

3-jadvalda xorijiy moliyalashtirish modellarining kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligining asosiy determinantlariga ta'siri ekspert baholash usuli asosida qiyosiy tahlil qilingan. Jadval shuni ko'rsatmoqdaki, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan moliyalashtirish modellarining ustuvor yo'nalishlari va ta'sir darajasi bir-biridan farq qilsa ham, ularning barchasi kichik biznesning moliyaviy salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan kompleks institutsional mexanizmlarga asoslanadi. AQSHning SBA modeli kapitalga kirish, innovatsion salohiyat, risklarni kamaytirish va raqobat ustunligini shakllantirish bo'yicha eng yuqori natijalarni namoyon etadi. Bu holat davlat kafilligi, venchur kapital bozori va innovatsion grantlarning o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi bilan izohlanadi. Germaniyaning KfW modeli esa moliyaviy barqarorlik, uzoq muddatli kreditlash va eksportni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida ustunlikka ega bo'lib, ishlab chiqarishning texnologik modernizatsiyasi va investitsion barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yaponiyaning CGC modeli kredit kafilligi mexanizmlari orqali kapitalga kirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishda yuqori samaradorlikni namoyish etsa, Janubiy Koreyaning KOSME modeli innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va yuqori texnologiyali tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Xitoyning Digital Finance modeli esa raqamli kreditlash va FinTech platformalari orqali eksport salohiyati hamda raqobat ustunligini kuchaytiruvchi zamonaviy moliyalashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turkiyaning KOSGEB va Qozog'istonning Damu modellari nisbatan muvozanatli natijalarni ko'rsatmoqda. Xususan, KOSGEB grantlar, subsidiyalar va biznes xizmatlari orqali kichik biznesning umumiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, Damu jamg'armasi kredit kafilligi va foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmlari yordamida moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishga ixtisoslashgan. Bu esa ularning innovatsion yo'nalishdan ko'ra moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratayotganini anglatadi. Umuman olganda, tahlilimiz shuni anglatadiki, kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini oshirish uchun alohida moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish yetarli emas. Eng yuqori natijalarga davlat kafilligi, taraqqiyot banklari, innovatsion investitsiyalar, raqamli moliyalashtirish va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yagona institutsional tizimda uyg'unlashtirgan modellar orqali erishilmoqda. Bizga ko'ra, aynan ushbu integratsiyalashgan

yondashuv O‘zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

4-jadval. Kichik biznesni moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlar faoliyati va ularning ishlash mexanizmlarining qiyosiy tavsifi

Xalqaro tashkilot	Asosiy yo‘nalish	Moliyalashtirish vositasi	Faoliyat ko‘lami	Ishlash mexanizmi	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Jahon Banki	Institutsional islohotlar va biznes muhiti	Investitsiya loyihalari, imtiyozli kreditlar	100 dan ortiq mamlakat	Davlat islohotlarini moliyalashtirish va Business Ready metodologiyasi	Biznes muhitini yaxshilash va institutsional islohotlarni jadallashtirish
XMK	Xususiy sektorni rivojlantirish	Kreditlar, ulushli investitsiyalar (Equity), kafillik	100 dan ortiq mamlakat	Banklar va xususiy korxonalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish	Xususiy sektor va KBni moliyalashtirishni kengaytirish
IHTT	Siyosiy va institutsional tavsiyalar	Analitik hisobotlar va metodologiyalar	IHTT a‘zolari va hamkor davlatlar	SME Policy, Financing SMEs Scoreboard	KB siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish
Osiyo taraqqiyot Banki (OTB)	MSME va infratuzilmani rivojlantirish	Kreditlar, grantlar, texnik ko‘mak	Osiyo va Tinch okeani mintaqasi	Davlat va xususiy sektorni qo‘shma moliyalashtirish	Hududiy loyihalar va KBni qo‘llab-quvvatlash
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB)	Xususiy sektor va bank tizimi	Kredit liniyalari, ulushli investitsiyalar	30+ mamlakat	Tijorat banklari orqali KBni moliyalashtirish	Bank sektorini rivojlantirish va yashil moliya
Islom taraqqiyot banki (ITB)	Islomiy moliya va tadbirkorlik	Murabaha, musharaka, ijara, grantlar	57 a‘zo davlat	Shariat tamoyillari asosida moliyalashtirish	Islomiy moliya instrumentlarini rivojlantirish

Manba: Jahon Banki, XMK, IHTT, OTB, YeTTB va ITB hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadvalda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etuvchi yetakchi xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari, moliyalashtirish vositalari hamda institutsional ishlash mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Jadvalga ko‘ra, mazkur tashkilotlarning faoliyati nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etishga, balki kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning institutsional muhitini takomillashtirish, moliya bozorlarini rivojlantirish va davlat siyosatini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishga ham qaratilgan. Jumladan, Jahon Banki biznes muhitini yaxshilash va institutsional islohotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yetakchi xalqaro institut hisoblanadi. Uning investitsiya loyihalari va “Business Ready” (biznesni yuritish) metodologiyasi tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi institutlarni takomillashtirish, moliyalashtirish tizimining shaffofligini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) esa bevosita

xususiyy sektor bilan ishlovchi institut sifatida kreditlar, ulushli investitsiyalar va kafillik mexanizmlari orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda tijorat banklarining kreditlash salohiyatini oshiradi. IHTT moliyalashtirishni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirmasa-da, "SME Policy va Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard" kabi metodologiyalari orqali davlatlarga kichik biznesni rivojlantirish siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi. Osiyo Taraqqiyot banki (OTB) mintaqaviy rivojlanish loyihalari, texnik ko'mak va imtiyozli kreditlar yordamida kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilsa, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tijorat banklari orqali kredit liniyalari ochish, xususiyy investitsiyalarni rag'batlantirish va yashil moliya instrumentlarini joriy etish orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlamoda. Islom taraqqiyoti banki (ITB) esa murabaha, musharaka va ijara kabi shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish vositalari orqali muqobil moliyalashtirish tizimini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, mazkur tahliliy jadval xalqaro tashkilotlarning kichik biznesni moliyalashtirishdagi yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayrim institutlar institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlashga, boshqalari esa bevosita moliyaviy resurslar, investitsiyalar yoki texnik ko'makni taqdim etishga ixtisoslashgan. Fikrimizcha, O'zbekiston uchun ushbu tashkilotlar tajribasining eng muhim jihatlari moliyalashtirishni institutsional islohotlar, xususiyy sektorni rivojlantirish, raqamli transformatsiya va xalqaro standartlarga mos boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Bunday yondashuv kichik biznes subyektlarining moliyaviy raqobatbardoshligini oshirishi hamda ularning global moliyaviy va investitsion tizimlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlashda xorijiy moliyalashtirish modellarining institutsional tuzilishi va qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil AQSHning kredit kafilligi tizimi, Germaniyaning taraqqiyot banklari modeli, Yaponiyaning kredit kafolatlash mexanizmlari, Janubiy Koreyaning innovatsion moliyalashtirish siyosati, Xitoyning raqamli moliyalashtirish ekotizimi hamda Turkiya va Qozog'iston tajribasi kichik biznesning kapitalga kirish imkoniyatlari, innovatsion faolligi va investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan xalqaro institutlar tomonidan qo'llanilayotgan mexanizmlar moliyaviy qo'llab-quvvatlashni institutsional islohotlar va biznes muhitini takomillashtirish bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuning yuqorida tavsiflangan integrallashgan yondashuvni O'zbekiston amaliyotiga bosqichma-bosqich moslashtirish kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, investitsion salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim nazariy-metodologik hamda amaliy asos bo'ladi xulosa qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaisov, D. I. (2026). Directions for improving organizational mechanisms to ensure competitiveness of small businesses providing medical services. *International Conference on Science & Technology*, 2(1), 108–115.
2. Madraximov, Q., Matkarimov, M., Yakubov, A., & Nurjonov, J. Methodological approaches to assessment of entrepreneurial ability. *American Journal of Business Management, Economics and Banking. ISSN (E)*, 2832-8078.
3. Matkarimov, M., Madraximov, Q., Sherjonov, S., & Nurjonov, J. The Purpose OF Assessing A Person's Entrepreneurial Capacity is to Classify Their Quality Characteristics. *Green Economy and Development*, 3(8), 666659.
4. Egamberganovich, M. Q. (2025). MINTAQALAR KESIMIDA IQTISODIY NOMUTANOSIBLIKLA VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (13. I), 2085-2097.
5. Egamberganovich, M. Q., & Dilshodbekovna, S. M. (2025). O ‘ZBEKISTON MINTAQALARI BO ‘YICHA IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK LARNING KONVERGENTSIYA KO ‘RSATKICHLARI TAHLILI. *Journal of marketing, business and management*, 4(6), 47-54.
6. Egamberganovich, M. Q. (2026). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (14. I), 927-935.
7. Vaisov, D. I. (2026). Stages of improving the mechanisms for ensuring the competitiveness of small business entities providing medical services. *Научный Импульс*, 4(41), 86–92.
8. Vaisov, D. I. (2026). Prospects for the development of small business entities in the medical services market. *Prospects for the Development of Small Business Entities in the Medical Services Market*.
9. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashni takomillashtirish. *Marketing jurnali*, 11(240874), 286–295.
10. Vaisov, D. I. (2024). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiylar tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta’minlashdagi ilg‘or tajribalar. *Marketing jurnali*, 28–37.
11. Asian Development Bank. (2024). *Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor 2024*. Asian Development Bank.
12. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and legal constraints to firm growth: Does firm size matter? *The Journal of Finance*, 60(1), 137–177.
13. Berger, A. N., & Udell, G. F. (1998). The economics of small business finance: The roles of private equity and debt markets in the financial growth cycle. *Journal of Banking & Finance*, 22(6–8), 613–673.
14. International Finance Corporation. (2017). *MSME Finance Gap: Assessment of the Shortfalls and Opportunities in Financing Micro, Small and Medium Enterprises in Emerging Markets*. IFC.

15. International Finance Corporation. (2024). *Creating Markets Advisory Annual Report 2024*. IFC.
16. KfW Development Bank. (2024). *KfW Annual Report 2024*. KfW Banking Group.
17. Korea SMEs and Startups Agency. (2024). *KOSME Annual Report 2024*. KOSME.
18. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard*. OECD Publishing.
19. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2024). *OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship*. OECD Publishing.
20. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
21. Small Business Administration. (2024). *Small Business Administration Annual Performance Report 2024*. U.S. SBA.
22. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). *Digital Economy Report 2024*. United Nations.
23. Vaisov, D. I. (2024). Raqobatbardoshlik tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va baholash metodologiyalari. *University Research Base*, 2(6), 65–72.
24. World Bank. (2023). *Business Ready 2023: Methodology Handbook*. World Bank.
25. World Bank. (2024). *World Development Report 2024: The Middle-Income Trap*. World Bank.
26. World Bank Group. (2024). *Global Financial Development Report 2024*. World Bank.
27. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). *Transition Report 2024–2025*. EBRD.
28. Islamic Development Bank Institute. (2024). *Islamic Finance and SME Development Report 2024*. IsDB Institute.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *O‘zbekiston – 2030 strategiyasi*. Toshkent.
30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF–60-son Farmon). Toshkent.